

INGLIZ TILI DARSLARIDA KBIT TEXNOLOGIYASI ORQALI NOFILOLOGIK TALABALARING KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Seilxanova Rita Nurniyazovna

Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

rita.8211@icloud.com

Annotation. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonidanofilologik talabalarda kreativ kompetensiyani KBIT texnologiyasi orqali rivojlantirish masalalari muhokama qilingan. Ushbu texnologiya orqali ta’lim jarayonida ingliz tilini o‘qitishda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning natijalari, bosqichlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tilini o‘qitish, kreativ kompetensiya, model, metodika, bosqichlar, tayyorgarlik, universallik.

Аннотация. В данной статье обсуждаются вопросы развития креативной компетенции у студентов-нефилологов в процессе обучения английскому языку с помощью технологии КБИТ. Речь идет о результатах, этапах развития креативной компетенции в обучении английскому языку в образовательном процессе посредством данной технологии.

Ключевые слова: обучение английскому языку, креативная компетенция, модель, методика, этапы, подготовка, универсальность.

Abstract. This article discusses the development of creative competence among non-philology students in the process of teaching English using KBIT technology. We are talking about the results, stages of developing creative competence in teaching English in the educational process through this technology.

Keywords: English language learning, creative competence, model, methodology, stages, preparation, versatility.

Ingliz tili darslarida talabalarga **KBIT texnologiyasi** asosida muammoli topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalardan faollik talab etiladi, ulardagi kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishga olib keladi. Masalan, Al Xorazmiy nomidagi TATUning Nukus filiali Chet tili fanining "My favorite website," "Social media. Writing a blog," "Online education. So, such, enough, too," "IT specific vocabulary. Both, neither, none, all" mavzulari bo'yicha talabalar mustaqil muammoli mashqlarni bajarish imkoniyatiga ega.

1-turdagi muammoli vaziyat. Muammoli vaziyat yangi ma'lumot va talabalarda o'tgan tajribalar natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar ziddiyati tufayli yuzaga keladi. Bunday vaziyatda o'qituvchining vazifasi talabalarni yangi tushuncha kiritish zarurligiga yo'naltirish va paydo bo'lgan ziddiyatli vaziyatni bartaraf etish uchun mavjud tushunchani prinsipial jihatdan o'zgartirishdan iborat. Masalan, "My favorite website," "Social media. Writing a blog," "Online education. So, such, enough, too," "IT specific vocabulary. Both, neither, none, all" mavzulari bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi, bu muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llari haqida improvizatsiya qilinib, ingliz tilida javob berishi so'raladi. Har bir berilgan topshiriqni bajargan talaba baholanadi.

2-turdagi muammoli vaziyat. Muammoli vaziyatda ingliz tili bo'yicha grammatik masalalarni yechish uchun mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, fan uchun zarur bo'lgan masala ko'rinishida aniqlanishi lozim.

3-turdagi muammoli vaziyat. Muammoli vaziyat ingliz tilida qo'llaniladigan ma'lum obyektlar va tushunchalarning sinonimlarini topish, o'xshatish orqali yuzaga keltiriladi.

4-turdagi muammoli vaziyat. Standart o'quv masalalarini hal qiluvchi muammoga yo'naltirilgan o'qitish, shuningdek, umumiylashtirish, masalaning qo'yilishi, muammoni hal qilish. Masalan, "IT specific vocabulary. Both, neither, none, all" mavzusi bo'yicha o'qituvchi

tomonidan tayyorlangan matndagi muammoni hal qilish holatlarining algoritmini (rejasini) tuzish, algoritmni amalga oshirish, natijani o‘rganish va tadqiq qilish.

5-turdagi muammoli vaziyat. Zamonaviy ijtimoiy trendlar va ularning tarbiyaviy va salbiy jihatlari bo‘yicha nutq tayyorlash. Tayyorlangan so‘zlarning sinonim va antonimlarini ko‘rsatib berish. Yuqorida qayd etilgan 5 turdagи muammoli vaziyatni rivojlantirishda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, praksiologik komponentlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Y.R.Varlakova [1] ham refleksiyani nofilologik talabalar kreativligining alohida komponenti sifatida qarab, faqat quyidagilarni ta’kidlaydi:

motivatsion-qadriyatli - ta’lim jarayoni subyektining o‘z bilimlari, ko‘nikmalarini egallash va amalga oshirishga, bo‘lajak kasbga qadriyatli munosabatda bo‘lishga shaxsiy munosabati;

kognitiv - talabaning bilim va ko‘nikmalarini tizimi, uning samaradorligiga va kreativlikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi bilish faoliyatining muayyan xususiyatlari;

praksiologik - kasbiy faoliyatni amalga oshirishga ijodiy yondashish qobiliyati.

Kreativ kompetensianing I.E.Bryakova tomonidan taklif etilgan komponentlarining to‘liq ta’rifi quyidagicha deb hisoblanadi: aksiologik (inson o‘zligiga ijodiy yondashuv qadriyat sifatida), motivatsion (ijodiy o‘zaro ta’sirga bo‘lgan ehtiyoj, bu ehtiyojni talabaga yetkazish istagi), kognitiv (dialog orqali ijodiy o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyati), operativ (to‘plangan tajribadan ijodiy foydalanish va yangi usullarni yaratish qobiliyati); refleksiv (o‘z ijodiy faoliyati haqida o‘ylash; ta’lim jarayonida o‘qituvchi sifatidagi roli haqida o‘ylash) [2]. Bunda filolog-talabalarning kreativlik kompetensiyasini o‘rganib, KK strukturasida bir qator o‘ziga xos kompetensiyalar: adabiyotshunoslikka oid, lingvistik, madaniyatshunoslikka oid va boshqalarni aniqlaydi. Shuning uchun I.E.Bryakova ta’riflagan kreativlik kompetensiyasining komponentlari profil yo‘nalishga ega bo‘lib, to‘liq tayyorgarlik yo‘nalishi uchun universal emas.

Shunday qilib, qayd etilgan tadqiqotlar, shuningdek, I.E.Bryakova, V.N.Petrova, A.V.Xutorskiy, E.E.Sherbakova va boshqalarning ishlarini tahlil qilish asosida har qanday

tayyorgarlik sohasidagi pedagog kreativ kompetentligining to‘rt komponentini ajratamiz: kognitiv, motivatsion, faoliyatli, refleksiv. Har bir komponentni alohida tasvirlab o‘tamiz.

Kognitiv komponent [lot. cognitio bilim, tushunish], ya’ni bilish, fikrlash bilan bog‘liq. Bilim - bu anglangan, tushunib olingan, xotirada saqlanadigan va zarur paytda turli masalalarni yechish uchun esga olinadigan axborotdir [3]. Kreativ kompetensiyaning bu tarkibiy qismi o‘qituvchining kreativ faoliyati haqidagi psixologik-pedagogik va metodik bilimlar yig‘indisini (mustaqil ta’lim doirasida ham, kasbiy amaliyot doirasida ham) o‘z ichiga oladi.

Motivatsion komponent. Ilmiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda motivatsiya ushbu xulq-atvor, yo‘nalishi va faolligini asoslovchi psixologik xarakterdagi sabablar yig‘indisi sifatida belgilanadi. O‘qituvchining kasbiy kompetentligining motivatsion komponenti V.A.Adolf, I.A.Zimnyaya, L.A.Xalilova va boshqalarning tadqiqotlarida ajratib ko‘rsatilgan. Bunda motivatsion tavsifi mualliflar tomonidan o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish, bilimlarni eng chuqur va to‘liq o‘zlashtirish; axborot texnologiyalarini har tomonlama egallashga intilish; muayyan vaziyat sharoitida faol usullar va mustaqil harakatlarni topish zarurati sifatida tushuniladi. Bizning fikrimizcha, kreativ kompetensiyaning motivatsion komponenti o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibi sifatida pedagogning ijodiy faoliyatiga tushunarli ijobiy munosabatini, ta’lim jarayonining barcha subyektlari bilan ijodiy hamkorlikka bo‘lgan ehtiyojini va bu ehtiyojni talabaga yetkazishga intilishini bildiradi. Bu komponentni rivojlantirish, ayniqsa, nofilologik talabalarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning birinchi bosqichida muhimdir.

Faoliyatli komponent. Har qanday kompetensiyani, shu jumladan, kreativ kompetensiyani rivojlantirish faqat faoliyatni amalga oshirish jarayonida mumkin, bu "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining o‘z ta’riflaridan kelib chiqadi. Chunki zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar, shuningdek, o‘z kasbiy faoliyatida kreativlikni namoyon etish tajribasi amaliyotda oshiriladi. Shunday qilib, nofilologik talabalarning

kreativ kompetensiyasining faoliyatli komponenti deganda talabalarning quyidagi sifatlari va ko‘nikmalari yig‘indisi tushuniladi:

- muammoni shakllantira olish, yechish rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga ijodiy yondasha olish;
- darslik bilimlari orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasini egallah;
- to‘plangan tajribadan ijodiy foydalana olish va o‘qitish hamda tarbiyalashning yangi metodikalarini yarata olish;
- pedagogik faoliyatda so‘z va obrazli kreativlikning namoyon bo‘lishi.

Masalan, adabiyot o‘qituvchisi uchun kreativ kompetensiyaning faoliyatli komponenti quyidagilardan iborat: badiiy asarni tahlil qilishning o‘ziga xos metodikalarini egallah; talabalarning adabiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikalarini egallah; to‘plangan tajribadan ijodiy foydalana olish va yangi metodikalarni yarata olish [4]. Shuningdek, axborotni ko‘rgazmali namoyish etishning o‘ziga xos shakllari (jadval, grafika, diagramma va h.k.), kasbiy masalalarni yechish doirasida mutaxassislik haqidagi bilimlar.

Refleksiv komponent (keyinchalik lotincha reflexio - orqaga murojaat). O‘z faoliyati natijalarini va o‘zining rivojlanish darajasini, shaxsiy yutuqlarini ongli nazorat qilishni bilishda; kreativlik, tashabbuskorlik, hamkorlikka yo‘nalganlik, hamkorlik, o‘z-o‘zini tahlil qilishga intilish kabi fazilat va xislatlarning shakllanganligida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Брякова И.Я. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: автореф. дис. ... док. пед. наук. – 2010. –52 с.
2. Брякова И.Я. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: автореф. дис. ... док. пед. наук. – 2010. –52 с.

3. Современный словарь по педагогике / сост. Е.С.Рапацевич. – Минск: Современное слово, 2001. – 928 с.
4. Брякова И.Я. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: автореф. дис. ... док. пед. наук. – 2010. –52 с.